

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA "TARBIYA" DARS'LARI O'QUV JARAYONINI
TASHKIL ETISH**

Xushvaqtova Mukarram

Qarshi Davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1463119>

Annotatsiya. Maqolada tarbiya va ta'lif to'g'risidagi tushunchalar, pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablar, dars jarayonini tashkil etish bo'yicha metodlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ta'lif, o'quvchi, o'quvvachchi, metod.

KIRISH

Ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar uzlusiz ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish, innovasion ta'lif texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentliligi va kreativ tafakkurini rivojlantirishning variativ shakllarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Ta'lif oluvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mexanizmlarini yangicha yondashuvlar bilan integrasiyalashda Xitoy, Singapur, Yaponiya, Koreya, Finlandiya, Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya kabi davlatlar tajribalariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ta'lif tizimini tubdan isloh qilish borasidagi islohotlar shaxsning ijtimoiylashuvi va tarbiyasiga oid ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishini ta'minlash, davlat ta'lif standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko'nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Ta'lif muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivasiyani shakllantirish" [1] kabi vazifalar belgilangan.

Komil inson tarbiyasi har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlod tarbiyasidagi loqaydlik jamiyatni ma'naviy inqirozga olib kelishi o'tmish ajdodlarimiz tajribalaridan yaxshi ma'lum. Negaki, taraqqiyot uchun har qanday jamiyatda ham moddiy, ham ma'naviy boyliklar doirasi to'xtovsiz ravishda kengayib borishi zarur. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklarni ajdodlari darajasida, ularidan ham yaxshiroq yarata bilishlari kerak [2]. Kichik maktab yoshidan o'quvchilarda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantirish uchun esa Tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish tizimiga ega bo'lish muhim sanaladi.

Chunki, Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek “**Al hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidu**”. Umuman olganda esa ta'ilming asosida tarbiya yotadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

boshlang'ich sinflarning Tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali o'quvchi-yoshlarda yuksak ma'naviy tolerantlik, umummadaniy dunyoqarashni kamol toptirish nazarda tutiladi. Buning uchun:

–boshlang'ich sinflarning Tarbiya darslarini loyihalashtirish mazmuniga buyuk allomalar ma'naviy merosini kiritish;

–o'tmish ajdodlarimiz asarlarini o'rganish va ularning faoliyatiga qiziqish, shaxsiyatiga ehtirom tuyg'ularini tarbiyalash maqsadida tarixiy obidalarga sayohatlar uyushtirish va shu orqali xalqaro ta'lif tizimiga integrasiyalashish;

–o'quvchilarning vatanimiz tarixi, madaniyati va atrof-olam haqidagi bilimlarini oshirish, ta'lif olishda erkin mobilizasiyasiga erishish;

–ajdodlarimiz tomonidan to'plangan madaniy merosni asrab- avaylashga o'rgatish;

–milliy tajribalar va xalqaro standartlarga mos tarbiyaviy faoliyat mazmunini kengaytirish;

–fan, ta'lif va ishlab chiqarish integrasiyasini ta'minlash;

–an'anaviy yondashuvlarga nisbatan innovation ta'lif usullariga kengroq o'rinn berish;

–yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni ta'minlash, bunda ularning san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishlarini oshirish;

–boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish.

Ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar tahlillaridan ma'lum bo'ladiki, boshlang'ich sinflarning Tarbiya darslarini loyihalashtirishning quyidagi tarkibiy komponentlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

Tarbiya darslari mazmunini o'zlashtirish darajalarini baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillari asosida ajdodlarimiz merosidan oqilona foydalanish metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

uzluksiz tarbiya tizimida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;

kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivasiyani shakllantirish;

fanni o'qitishning metodik ta'minotini boyitish;

o'quv materiallarini va pedagogik baholashni ishlab chiqish orqali ta'lif tizimiga ta'limning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish [1].

Yuqorida qayd etilgan tarkibiy komponentlarni rivojlantirish muammolarining yechimi sifatida fanni o'qitishning yangicha usullari, vositalarini aniqlash, pedagogik-psixologik imkoniyatlarini o'rganish davr talabiga aylanmoqda

Agarda biz bu maqsadlarga riosa etadigan bo'lsak ta'limda nuqsonni kamaytirishga bir oz bo'lsada erishgan bo'lamiz. Ta'lim tarbiya uyg'unligi o'quvchilar uchun ham o'qituvchi uchun ham foydali bo'ladi. Ular bir-birini kemtikligini to'ldiradi. Tarbiya bor joyda ta'lim yuksaladi.

O'qituvchilarimiz esa bu narsalarga e'tibor qaratishi kerak. Darslarni esa qiziqarli tarzda ishlashni, metodlardan ko'proq foydalanishlari kerak. Odatiylikdan qochishi va mukammallikka intilmog'i kerak. Pedagog shaxsi o'quv hi uchun ideal insondir. Agar o'qituvchi bolaga ta'imni ham tarbiyani ham berolsa undan jamiyat manfaat topadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ham ta'limga va tarbiyaga ham keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Pedagoglarga berilayotgan imkoniyatlar va sharoitlar ta'limni yuksaltirish va tarbiyani kamol toptirish uchun. Bola bilan ishslash, ularning fikrlariga qulq solish ular uchun ham biz uchun ham foydadan yoki bo'lmaydi. Tarbiyasi yuksak darajada lekin bilimi bo'lmasa, yoxud bilimi chiroyli ammo tarbiyasiz bo'lsa u butun umrga aziyat chekadi.

Jamiyatga moslashishi qiyinlashadi. Shuning uchun bu bilan nafaqat ustozlar, balki otanonalar ham shug'ullanishlari kerak deb hisoblayman. Darslarini va tarbiyasidagi o'zgarishlarni nazorat qilsa, albatta bola ham o'rganadi. Shunga o'xshagan fikrlar ko'p. Xullas, bolaga ta'lim sohasida ham tarbiya jarayonida ham e'tibor kerak.

REFERENCES

1. Shadiyev A.R, Asanova O.P. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. Darslik. Qarshi. 2021
2. Hasanboyev J, To'raqulov X.A, Alqarov Sh.A, Usmonov N.A. Pedagogika Toshkent:2016
3. Mavlonova P. Turayeva O, Xoliqberdiyeva K. Pedagogika Toshkent 2001
4. Atabayeva N, Salayeva M, Hasanova M. Umumiy pedagogika Toshkent: 2013